

# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Dehqon va  
Urug'



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
M. Maillot; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
E. Frischbutter; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan:  
Bible for Children [www.M1914.org](http://www.M1914.org)

©2017 Bible for Children, Inc.  
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz  
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.



Bir kuni Iso ko'l  
bo'yida ta'lim

berayotgan  
edi.



Ko'pgina odamlar  
Uning so'zlarini  
eshitish uchun

yig'ilishdi.



Odamlar nihoyatda  
ko'payib ketdi.  
Endi Iso nima

qilarkan?



Iso oldidagi qayiqni  
ko'rib qoldi, va qayiqqa  
chiqib oldi.



Endi U odamlarni ko'ra  
olar, odamlar esa Uni  
eshita olishardi.



Iso ularga masallar  
aytib berdi.






Masallar oddiy narsalar  
haqidagi hikoyalar bo'lib,  
Xudo haqida ta'lib  
berishda

qo'llanilardi.





“Bir dehqon dalaga urug’  
sochibdi.” Isoning hikoyasi so’zlar  
yordamida chizilgan rasm kabi edi.



Odamlar dalada ishlayotgan  
dehqonni tasavvur qila olishardi -  
axir ular dehqonlarni ko'p  
ko'rishgandi-da.





Sochilgan  
urug'larning  
ba'zilari yo'lakka  
tushibdi. Shuv!





Qushlar darrov  
uchib kelib u  
urug'larni yeb  
qo'yishibdi.




Ba'zi urug'lar dalaning  
toshloq joyiga kelib  
tushibdi. Ular  
tez o'sib chiqqan  
bo'lsada, uzun va  
nimjon bo'libdi.



Tez orada quyosh  
ularni quritib  
tashlabdi, chunki  
sayoz tuproqda  
ular tomir  
otolmabdi.



Boshqa urug'lar  
tikanlar orasida  
ildiz otibdi. U  
urug'lar hosil  
bermabdi.







Tikanlar yosh  
nihollarni siqib qo'yib,  
ular uchun zarur  
bo'lgan quyosh  
nuri va yomg'irni  
to'sib qo'yibdi.



Urug'ning qolgani esa  
yaxshi tuproqqa tushibdi.  
Vaqt o'tib, ular sog'lom  
o'sib ko'p don hosilini  
beribdi.



Hikoya tugagandan so'ng shogirdlar  
Isoning oldiga kelishdi.



"Sen nega masallar orgali ta'lim beryapsan?" so'rashdi ular.



Ular Xudoni haqiqatdan sevishsa, ...



... bu masallar Uni tushunishda yordam beradi, deb javob berdi Iso.




Xudoni sevmaydigan odamlar bu masallarni tushunishmaydi.



Shunda Iso masalni  
tushuntirib berdi.

Urug' - bu  
Xudoning

Kalomi,  
dedi U.





Yo'lakka tushgan urug'  
bu Xudo Kalomini eshitib, ...



... lekin tushunmaydigan odamdir. Shayton bunday

odamlarni Xudoning

aytgan so'zlarni unutishiga undaydi.



Ba'zilar Xudoning Kalomini tezgina qabul qilishadi. Ular toshloqqa tushgan urug' kabidir.



Kimdir ularni masqara qilsa, yoki  
Xudoni sevishiga qarshilik qilsa,  
achinarli hodisa sodir  
bo'ladi.



Bunday odamlar quvonch bilan  
Isoning orqasidan ergashishgan  
bo'lsa-da, endi undan tonib,  
Xudoning Kalomiga rioya qilishni

to'xtatishadi.



Ular Xudoga ergashish  
qiyinchiliklarini qabul qilisholmaydi.  
Achinarlisi shundaki, ular Xudodan  
ko'ra do'stlarini xushnud qilishni

tanlashadi.



Masaldagi  
tikanlar  
kabi dunyo  
tashvishlari  
va pulparastlik  
ba'zi insonlar  
hayotini  
egallab  
oladi.



Ular ko'proq  
pul ishlash  
va boshqa  
narsalarga  
erishish bilan  
shunchalar bandki,  
Xudoni  
tashlab  
ketishadi.





Yaxshi tuproqqa tushib, mo'l  
hosil bergan urug'lar esa Xudo  
Kalomini qalbiga qabul qilib, hayoti  
o'zgarayotgan odamlardir.



Bundaylar Xudoga xizmat qilib, Uni e'zozlashadi.



Olomon ketishni xohlamadi. Ko'plar  
Xudoga ergashib, Uni xushnud  
qilishni istashardi.



Isoning masallari ularga Xudoga qanday bo'ysunishni tushunishda yordam berdi.



# Dehqon va Urug'

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 13

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga  
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,  
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun  
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men  
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot  
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,  
men Senga itoat qilishim uchun va Sening  
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har  
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

